

O'TKIR HOSHIMOVNING FRAZEOLOGIZMLARDAN

FOYDALANISH MAHORATI

*Saydivaliyeva Dinora Qamariddin qizi,
JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

Ilmiy rahbar, f.f.f.d.(PhD) Lutfulla Sindorov

Annotatsiya: maqolada frazeologizmlarning etimologik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari hamda O'tkir Hoshimov ijodida frazeologizmlarning o'rni va ahamiyati, foydalanish mahorati haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *frazeologizm, leksema, fazema, lison, frazeologik birlik, kategoriya, qahramon nutqi, lug'at tarkibi, funksional jihat, leksik qatlam, badiiy matn, yozuvchi uslubi, badiiy nutq.*

Аннотация. В статье отражены этимологические, лексико-семантические, стилистические особенности фразеологии, а также научно-теоретические взгляды на роль и значение фразеологии в творчестве Уткира Хошимова, умение употреблять.

Ключевые слова: *фразеология, лексема, фразема, язык, фразеологизм, категория, речь главного героя, словарная структура, функциональный аспект, лексический слой, художественный текст, писательский стиль, художественная речь.*

Annotation. The article reflects the etymological, lexical-semantic, stylistic features of phraseology, as well as scientific and theoretical views on the role and importance of phraseology in the work of Utkir Hoshimov, the skill of use.

Key words: *phraseology, lexeme, phrasema, language, phraseological unit, category, protagonist speech, dictionary structure, functional aspect, lexical layer, literary text, writer's style, artistic speech.*

Frazeologiya tilshunoslik fani bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo‘lim tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma’lumot beradi. Frazema ko‘chma ma’noli turg‘un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma’noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tepa sochi tikka bo ‘ldi, sirkasi suv ko ‘tarmaydi* va hokazo¹.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli² asos solgan. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma’no guruhlariga ko‘ra tasniflaydi³. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategoriya va ma’nolarini aniqlagan⁴. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoyev, A.Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan⁵. Olimlar o‘rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So‘zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o‘rganilganligi ahamiyatlidir. Lekin badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan hisoblanadi.

Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta’sirchan vosita sifatida qo‘llaniladi⁶. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o‘zgacha joziba, ko‘tarinki ruh, yengillik baxsh etadi.

Frazeologizmlar biron narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofliji va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri

¹ Sayfullayeva.R. Mengliyev.B va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 117.

² Balli Sh. Французская стилистика. М.: Из-во иностр. лит-ры, 1961. –С. 89-90.

³ Грамматикой русского языка. Виногадов. 1952-1954 ий

⁴ Jukov A.V. Фразэологичэская преходность в русском языке. Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1984. –С. 25-31.

⁵ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati, Toshkent, 1978.; Sodiqova M. «O‘zbek tilining orfografik lug’ati. Toshkent. 1977.; Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. –T.: ToshDU nashri, 1975. B 48-72. Rafiyev A. O‘zbek va rus tillarida ravish frazeologik birliklar. T.: 1999.

⁶ Abduaizizov A. Til nazriyasiga kirish. T.: 2010. –150 b.

frazeologizm sanaladi. Frazeologik birliklarning eng ko‘p badiiy matnda, qisman publitsistika, ilmiy ommabop matnlarda ham qo‘llaniladi. Yozuvchi badiiy matnda frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Biror voqeа-hodisani obrazli, ta’sirli ifodalash uchun: *tili uzun, ilonni yog ‘ini yalagan, dunyoni suv bossa, uning to ‘pig ‘iga ham chiqmaydigan*;
2. Turli holatlarni baholash uchun; frazeologizmlar salbiy va ijobjiy bo‘yoqqa ega: *Uning ko ‘zлari olayib o ‘rnidan turolmay qoldi*;
3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: *Xudoga shukur, ko ‘ngli joyiga tushdi*;
4. Nutqda ekspressivlikni («ekspressiya» so‘zi aslida lotincha so‘z bo‘lib, «kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy» degan ma’nolarni anglatadi. Nutqning ta’sirchanlik xususiyatini ifodalaydi) ifodalash uchun;
5. Badiiy matnda satira va humor hosil qilish uchun.

Yumor va satirani yaratishda frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiatini bilan bog‘liq, chunki ko‘pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma’no nozikliklari bo‘ladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning so‘zlash ohangida yumoristik yoki satirik ishorani ta’kidlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi⁷. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan frazeologizmlardan O’tkir Hoshimov o‘z ijodida o‘rinli foydalangan: *Ariq qazib bo ‘lmasa, yer qazib bo ‘lmasa... o ‘zimizniyam patagimizga qurt tushib turibdi*⁸.

Frazeologizmlar badiiy matnga estetik zavq beradi. Kitobxon asarini o‘qish jarayonida frazeologizmlardan o‘ziga boshqacha emotsiya oladi. Yozuvchi ijodida qancha ko‘p frazeologizmlarni ishlatsa, asarining qimmati shunchalik oshadi. Yozuvchi asar qahramoning xarakterini, uning holatini, ichki dunyosini ochishda frazeologizmlardan foydalanadi.

Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo‘llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma’nolar mavjud.

⁷ Yo’ldoshev B. «Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari». Toshkent. 1993. –25 b.

⁸ O’tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. – T.: Meriyus, 2017. – B 189.

Badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazeologizmlar qo‘llanilganda bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning biri uzual, ya’ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkazional, ya’ni nutqiy (uslubiy) funksiyadir. Frazeologizmlarning ichki ma’nosи, ichki tabiatи har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi.

Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi va yo‘nalishlari bo‘ladi. O’tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar», «Bahor qaytmaydi» va shu kabi asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklarni to‘plab o‘rganish orqali yozuvchining o‘ziga xos uslubi va yo‘lini tahlil qilishga harakat qildik.

pinakka ketmoq: ma’nosи: *uxlab qolmoq*; Alimardon yaproqlarning pirpirab uchishini tomosha qila-qila pinakka ketdi⁹.

burnini suqmoq: Sinonimi: a) *bosh suqmoq*; *Aytyabman-ku*, *burnini suqmagan joyi yo‘q edi bu bolaning*¹⁰. b) *burnini tiqmoq*; *s) tumshug ‘ini tiqmoq (salbiy ma’no)*; d) *chovlisini solmoq*.

og‘zi qulog‘iga yetmoq: ma’nosи: xursand bo‘lmoq. *Kechqurun og‘zim qulog‘imga yetkudek bo‘lib bir do‘ppi yong‘oq ko‘tarib keldim*¹¹.

olamdan o‘tmoq: varianti: *olamdan ketdi*. Ma’nosи: o‘lmoq. *Meni shuncha o‘limdan asrab qolgan odam shundoq ko‘z o‘ngimda olamdan o‘tdi*¹².

belida belbog‘i bor: ma’nosи: mard. *Endi... gapning po‘stkallasi shu: belimda belbog‘im bor deganing ertalab hasharga kelaver*¹³.

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma’no hodisasisidir. Frazeologizm va so‘z bo‘lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo‘lmaydi. Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlarni tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o‘qib, o‘rganish va ularni tahlil qilish, tasniflash ma’lum

⁹ O’tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlodи, 2015. – B 468.

¹⁰ O’tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar / roman / «Abadiy barhayot asarlar» turkumi. –T.: «Ilm-ziyо zakovat», 2019. – B 41.

¹¹ O’tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. qissa va hikoyalar / –T.: Yangi asr avlodи, 2018. –B. 21.

¹² O’tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi:roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. –B. 189.

¹³ O’tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. – T.: Meriyus, 2017. – B. 61.

ma'noda o'z xalqining tili haqida ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Frazeologizmlar so'zlovchi nutqini ta'sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R. Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – 416 b.
2. Abduazizov A. Til nazriyasiga kirish. T.: 2010. – 150 b.
3. Yo'ldoshev.B.Hozirgi frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T.: 2010.
4. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. qissa va hikoyalar / –T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 336 b.
5. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. – 544 b.
6. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2015. –500 b.
7. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar / roman / «Abadiy barhayot asarlar» turkumi. –T.: «Ilm-ziyo zakovat», 2019. –240 b.